

O‘zbek milliy musiqa merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati

Buxoro davlat universiteti
Musiqa ijrochiligi va madaniyat
kafedrası 12-2 vokal 20 guruh talabasi
Raxmonov Javoxir Sunnatullo o‘g‘li

Annotatsiya – Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa merosi, an’anaviy maqom san’atini rivojlantirish, istiqbolli loyihalar haqida so‘z yuritilgan. “Shashmaqom” ashulasining sehri, qalblarga xush yoquvchi tarovati, yoshlar ma’naviyatiga ijobiy ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar – maqom, musiqa merosi, monografiya, seminar-treninglar.

Maqom sehri va an’anaviy san’at. Qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo‘tadillik bag‘ishlaydi. Uning mo‘jizakorligi bu qadimiy merosimizni o‘zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehrlanib, sel bo‘lib tinglashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa’y-harakatlar milliy maqom san’ati rivojiga ko‘rsatilayotgan g‘oyat ulkan e’tibor va g‘amxo‘rlikda yorqin ifodasini topmoqda. Ular tomonidan 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilingani san’atimiz rivojida yangi istiqbollarni ochmoqda. Mazkur hujjat o‘zbek maqom san’atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2018 yil 28 noyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori respublikamizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar taraqqiyotining yorqin namunasidir. Ma’lumki, yaqinda Prezidentimiz tashabbuslari bilan O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tashkil etildi. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati festivalini o‘tkazish belgiladi. Mamlakatimizda milliy merosimizni o‘rganish, yoshlar ongiga singdirishga avlodlarimiz ma’naviy-axloqiy tarbiyasining uzviy qismi sifatida yondashilmoqda. Jahonda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi muqarrar integratsiya jarayonlari ba’zi hollarda foyda keltirsa, ba’zan bu murakkab jarayonning ziyoni ham ko‘zga tashlanmoqda. Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, butun dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda Maqom san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek “Shashmaqom”ni nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo‘shiqklarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Kezi kelganda, maqom san’atida o‘ziga xos o‘rin egallagan O‘zbekiston xalq artistlari Maqom malikasi Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Orif Alimaxsumov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xadya Yusupova, Buxoro musiqa bilim yurtining o‘qituvchisi, birinchi respublika maqomchilar tanlovining g‘olibi gijjakchi O‘lmasxon Rasulov, Xorazm filarmoniyasining solisti, qo‘shnaychi Yo‘ldoshvoy Tojiyev, O‘zbekiston radiosining solisti,

Respublikado xizmat ko'rsatgan artist Abduhoshim Ismoilov, changchi sozandalar Turg'un Otaboyev, Abdurahmon Xoltojiyev kabi ajoyib shogirdlar ijodida ustozniig ruhi, sanati hamon yashayotganini ham alohida takidlash joizdir. «Sharq taronalari» o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivali arafasida Samarqand shahrida O'zbekiston xalq hofizi, mashhur bastakor va sozanda Hoji Abdulaziz Abdurasulov uymuzeyi ochildi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1852-1936

yillarda Samarqandda yashab, ijod qilgan taniqli bastakor, o'zbek maqom sanati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan betakror ovoz sohibidir. U yaratgan "Guluzorim", "Gullar bog'i", "Beboqcha", "Bozurgoniy", "Samarqand ushshog'i" kabi yuzlab qo'shiqlar mumtoz musiqa merosimizning eng noyob asarlari qatoridan joy olgan. Shashmaqomni o'rganish va keng targ'ib etishda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning xizmatlari katta bo'lgan. Samarqand maqom yo'llari, soz chalish va ashula aytish bo'yicha ko'plab yoshlarga ustozlik qilgan, ularga o'z sanadini o'rgatgan. Jumladan, O'zbekiston xalq artisti akademik Yunus Rajabiy ham ularning Samarqanddagi xonadonida yashab, hofizdan saboq olgan. Yurtboshimiz tashabbusi bilan o'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida "Maqom" nomli kitob-albom nashr etildi. Bu haqida Prezident matbuot xizmati xabar berdi. O'zbek xalqining noyob musiqiy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodga bezavolyetkazishga xizmat qiluvchi ushbu nashr qadimgi mutafakkirlar, alloma va shoirlarning maqom san'atiga bag'ishlangan risolalariga oid bo'limlarni o'z ichiga olgan. Kitobda mazkur san'atning falsafasi, Forobiy, Ibn Sino, Marog'iy, Kavkabi kabi allomalar asarlari, turli maqom yo'llari, jumladan, Buxoro Shashmaqomi, Xorazm Olti yarim maqomi va Dutor maqomi, Farg'ona-Toshkent maqomi tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. "Tanbur chizg'ilari" deb nomlangan milliy nota yozuvining kashf etilishi hamda uning vositasida Olti yarim maqom, Dutor maqomlarining notalashtirilishi, shu bilan birga, o'tgan asr boshlarida maqomning ilk bora perfokartalarga muhrlanishi yoritilgan. Shuningdek, maqom ijrochiligida keng qo'llaniladigan sozlarni yasashning o'ziga xos xususiyatlari va texnologiyasi bayon etilib, mashhur ustalarning nomlari keltirilgan. Hozirgi kunda yurtimizda akademik Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim. Maqom arabcha "joy", "o'rin", "makon", musiqa tushunchasida esa cholg'u asboblari tovush hosil etiladigan joy, yani aslida parda manosini bildiradi. Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko'ra, maqomlarning eng qadimiy namunalari payg'ambarlardan meros qolgan. Xususan, XVII asr ikkinchi yarmi – XVIII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning "Tuhfatus-surur" nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg'ambar nomlari bilan bog'liq yettita maqom bo'lgan.

Bunda "Rost" maqomi – Odam alayhissalomdan, "Ushshoq" – Nuh alayhissalomdan, "Navo" – Dovud alayhissalomdan, "Hijoz" – Ayub alayhissalomdan, "Husayniy" – Yoqub alayhissalomdan va "Rahoviy" – Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan meros qolganligi haqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo'ja Abdulqodir ibn Marog'iy, xo'ja Safiuddin ibn Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro'li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma'lum qiladi. Temuriylar davrida yashagan Xoja Abdulqodir Marog'iy, manbalarda zikr qilinishicha, Sohibqiron g'azabiga uchragach, bir qancha vaqt yolg'iz yashab, qalandarona hayot kechirdi. Kunlar o'tdi. Sarkarda o'z lashkari bilan Iroqqa yurish qilish harakatiga tushdi. Bundan xabar topgan Abdulqodir Amirning qulog'iga yetib boradigan bir nazm tuzishga qaror qildi. Shunday xayol bilan, u bir g'azal bitdi, uni bastaladi. So'ng temirchiga borib, shu kuy nag'malarini hosil qiluvchi har xil kattalikdagi qo'ng'iroqchalar yasatdi. Sarbon bilan kelishib, bu qo'ng'iroqchalarning qaysi tuyaga osilishi kerakligini ham kelishib oldi va kuyini bexato hosil qiladigan bir tartibda tuyalarga ostirdi. Karvon yo'lga chiqdi. Tuyalar harakatga kelib yura boshlagach, belgilab qo'yilganidek kuy chalina boshladi. Sohibqiron musiqa ilmidan xabardor edi, musiqani yaxshi tushunardi. Qo'ng'iroqchalardan taralayotgan bu yoqimli kuy Amirni befarq qoldirmadi. Bu kuy Iroqmaqomi yo'lida yaratilgan bo'lib, uni bastakor "Amali tarona" deb atagan edi. Temur kuyga

e'tibor qilar, kuy esa o'z ohangidan adashmasdi. Shunda u saroy musiqashunoslarining peshqadami bo'lib qolgan, ayni paytda bosh xonandalik vazifasida turgan va ushbu tadbirdan ogoh Xoja Abdulloh Loriyni huzuriga chorlab, unga dedi:

- Mug'anniy, eshityapsanmi, bu qo'ng'iroqchalar bir chiroyli kuy chiqarmoqda?

- Shohim, - dedi Loriy, - bir begunohning gunohidan kechsangiz, men buning sirini aytaman.

Amir:

- Bo'пти, men uning gunohidan kechdim, - dedi.

- Xoja Abdulqodir sizga o'zining sodiqligini izhor qilish niyatida "Iroq" maqomi yo'lida ushbu kuyni bastaladi, - dedi mehtar va Amir qoshida ana shu yangrab turgan kuy jo'rligida Abdulqodir yozib bergan yangi g'azalni kuylay

boshladi:

Chun miravi so'yi Iroq faromusham nakun...

(Mazmuni: Iroq sari yo'lga chiqsang, meni unutm).

Natijada Amir Abdulqodirning sodiqligiga shubha qilmay, unga avvalgiday marhamatlar ko'rsata boshlagan ekan.

- Maqom o'zbek va tojik xalqlarida bir xil nomda, Ozarbayjonda - mug'om, Eronda - nug'ba, uyg'urlarda - muqom deb yuritiladi va ular bir manoni anglatadi. Ko'plar ularning ildizi boshqa-boshqa deb o'ylaydi. Aslida mumtoz ohanglarimizning ildizi bitta. Faqatgina ayrim farqlar va o'ziga xosliklar mavjud. Chunonchi, uyg'ur maqomi ijrosida go'zal qochirimlarga etibor kuchliroq, tojik xalqida maqom ohanglari rang-barangligi bilan ajralib turadi. Forsiy kuy va ohang hamohangligini boshqa maqom takrorlay olmaydi. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy mano barcha zamonlarda etirof etilgan. Poytaxtimizda O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo, Xorazm, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarida namunali maqom ansambllari tashkil etildi. Ushbu bebaho merosimizga oid tarixiy, nazariy va amaliy ijrochilik an'analari, namoyandalari xususidagi ma'lumotlarni jamlash bilan bir qatorda mavjud yozma manbalarning ilmiy tadqiqotlari o'rganilmoqda. 2018-2019 o'quv yilidan boshlab bolalar musiqa va san'at maktablarida Maqom alifbosi fani o'qitilib kelinmoqda. Kitob, darslik, qo'llanma, monografiya, to'plamlar va maqom san'atini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalarida ilmiy asoslangan maqolalar yozish va nashrga tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Milliy maqom san'atiga oid yirik entsiklopediya yaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun bolalarning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi inobatga olingan holdamaqom namunalaridan tarkib topgan maxsus ma'rifiy disklar tayyorlandi. Maqom san'atiga oid "Oltin fond"ni yaratish bo'yicha markaz qoshida maxsus badiiy kengash tuzildi. "Ma'naviyat va ma'rifat" telekanali orqali "Maqom alifbosi" ko'rsatuvi efirga uzatila boshlandi. Bu televidenie orqali maqom san'atini oddiy va sodda tarzda keng ommaga tushuntirish va targ'ib qilishdir. "Mahalla" radiokanali orqali "Maqom mavjlari" eshittirishi tayyorlanmoqda. Yurtimizning barcha hududlaridagi oliy ta'lim dargohlarida, maktablar, mahallalarda maqom san'ati targ'ibotiga oidijodiy kechalar, maqom oqshomlari o'tkazilmoqda. Bolalar musiqa va san'at maktablarida maqom san'atiga oid mahorat darslari, seminartreninglar xalqimizning taniqli san'atkorlari, hofizlar, musiqashunoslar tomonidan muntazam tashkil etilmoqda. "O'zbekkino" Milliy agentligi bilan hamkorlikda Shashmaqom haqidagi hujjatli film va to'liq metrajli badiiy film ssenariysi yozib tugallandi. O'zbekistonda dastlab ilk professional maqom ansambli O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy tomonidan 1959 yili O'ztelebadiosi qoshida tashkil etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.

2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.
6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
7. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
8. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
9. **ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ.** Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96
10. **ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВСОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.** Угилой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99
11. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>
12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.
14. Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullarijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.
15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.

20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
21. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку](#). УХ Рамазонова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023
22. [O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA ANAMIYATI](#)
O Farangiz - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022
23. [Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения](#). Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96
24. [Внедрение и применение инновационных технологий в сознании студентов в образовательном процессе](#). УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023
25. [Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема](#). УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023
26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).
27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ //ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.
31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.
32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 105-109.
33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.